



UDK: 82.09:821.111

Muxayyo SA'DULLAYEVA,

O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

E-mail: mukhayyosadullaeva@gmail.com

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, Phd Z. Pardayev taqrizi asosida

INGLIZ ADABIYOTSHUNOSLIGIDA "BOY" OBRAZINING MAX WEBER, ROLAND BARTHES VA ERICH FROMM NAZARIYALARI ASOSIDAGI RAMZIY TALQINI

Annotsatsiya

Mazkur maqolada ingliz adabiyotshunosligida "boy" obrazining shakllanishi va mazmunini Max Weberning kapitalistik axloq, Roland Barthesning matn kodlariga asoslangan semioz modeli hamda Erich Frommning "ega bo'lish – bo'lish" psixologik konsepsiyasi asosida tahlil etadi. Jon Golsuorsi ("Forsaytlar haqida saga"), Charlz Dickens ("Buyuk umidlar", "Rojdestvo qissasi") va Jek London ("Martin Iden") asarlaridagi boylik tasvirining axloqiy, ramziy va ruhiy qatlamlari o'rganildi. Ingliz adabiyotshunosligidagi "boy" obrazlari nafaqat iqtisodiy kuch yoki ijtimoiy ustunlik timsoli, balki badiiy matndagi semantik belgilar tizimini shakllantiruvchi ramziy konstruktsiya hamda qahramonning ichki psixologik holatini aks ettiruvchi murakkab badiiy model ekanligi asoslandi.

Kalit so'zlari: Boy obrazi, kapitalistik axloq, semioz, ega bo'lish, Weber, Barthes, Fromm, ingliz adabiyoti, ramziy kodlar, psixologik tahlil.

СИМВОЛИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА «БОГАТЫХ» В АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРНОЙ КРИТИКЕ, ОСНОВАННАЯ НА ТЕОРИЯХ МАКСА ВЕБЕРА, РОЛАНА БАРТА И ЭРИХА ФРОММА

Аннотация

В данной статье анализируется формирование и смысловое наполнение образа «богатого человека» в английском литературоведении на основе трех ключевых теоретических подходов: концепции капиталистической этики Макса Вебера, семиотической модели текстовых кодов Ролана Барта и психологической концепции Эриха Фромма «иметь – быть». В работе исследованы нравственные, символические и духовно-психологические уровни репрезентации богатства в произведениях Джона Голсуорси («Сага о Форсайтах»), Чарльза Дикенса («Большие надежды», «Рождественская песнь») и Джека Лондона («Мартин Иден»). Обосновано, что образ «богача» в английском литературоведении функционирует не только как знак экономической силы или социальной доминантности, но и как сложная художественная конструкция, формирующая систему семантических текстовых кодов и отражающая внутреннее психологическое состояние персонажа.

Ключевые слова: Образ богача, капиталистическая этика, семиозис, режим обладания, Вебер, Барт, Фромм, английская литература, символические структуры, психологический анализ.

A SYMBOLIC INTERPRETATION OF THE IMAGE OF THE "RICH" IN ENGLISH LITERARY CRITICISM BASED ON THE THEORIES OF MAX WEBER, ROLAND BARTHES, AND ERICH FROMM

Annotation

This article examines the formation and semantic structure of the "rich man" image in English literary studies through three major theoretical frameworks: Max Weber's concept of capitalist ethics, Roland Barthes's semiotic model of textual codes, and Erich Fromm's psychological concept of the "having-being" modes. The study explores the ethical, symbolic, and psychological dimensions of wealth representation in the works of John Galsworthy (The Forsyte Saga), Charles Dickens (Great Expectations, A Christmas Carol), and Jack London (Martin Eden). The analysis demonstrates that the "rich man" figure in English literary scholarship functions not merely as an indicator of economic power or social superiority, but as a complex artistic construct that shapes a system of semantic textual codes and reflects the inner psychological condition of the character.

Key words: Rich character, capitalist ethic, semiotics, having mode, Weber, Barthes, Fromm, English literature, symbolic codes, psychological representation.

Kirish. Adabiyotshunoslikda "boy" obrazi ko'pgina holatlarda moddiy ne'mat egaligidan tashqari, chuqur ramziy ma'nolar yuklangan murakkab timsol sifatida namoyon bo'ladi. Ingliz adabiyotshunosligi tarixida "boy" obrazi doimo markaziy ijtimoiy-badiiy paradigmalardan biri bo'lib kelgan. XIX-XX asr realizm va modernizm oqimlarida boylik-mavjudlikning nafaqat iqtisodiy, balki axloqiy, semiotik va psixologik ko'rsatkichiga aylangan. Ushbu maqolada "boy" obrazining ramziy talqini max Weberning 'kapitalistik ruh' haqidagi nazariyasi, Roland Barthesning 'semioz' "ega bo'lish" va "bo'lish"

modellariga tayangan holda o'rganiladi. Shuningdek, ingliz adabiyotining yirik vakillar- Jon Golsuorsi, Charlz Dikens va Jek London asarlaridagi boy obrazlari mazkur nazariy qarashlar doirasida tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Adabiyotshunoslikda "boy" obrazining shakllanishi ko'p qirrali ilmiy konsept sifatida turli nazariy maktablar tomonidan o'rganilgan va izohlangan bo'lib, bu yo'nalishning taraqqiyoti sotsiologiya, psixologiya, madaniyatshunoslik va lingvosemiotika fanlari bilan chambarchas bog'liq holda rivojlangan. Mazkur bo'limda "boy" obrazining ramziy talqinini tushuntirishda yetakchi o'rin

tutuvchi nazariy yondashuvlar — Max Weberning “kapitalistik axloq haqidagi g’oyalari”, Roland Barthesning “matnning ko’p qatlamli semantik kodlardan iboratligi” haqidagi nazariyasi va Erich Frommning “insonning mulkka munosabati” psixologiyasiga oid modeli — qiyosiy asosda tahlil qilinadi. Ingliz adabiyotshunosligidagi tadqiqotlar, jumladan Dickens, Golsuorsi, London ijodiga bag’ishlangan ilmiy izlanishlar ham ushbu uch nazariya bilan uyg’un ravishda o’rganiladi. Max Weberning “Protestant etikasi va kapitalizm ruhi” asari boylikni shunchaki iqtisodiy kategoriya emas, balki diniy asoslangan axloqiy model sifatida tushuntiradi. Weberning fikriga ko’ra, kapitalistik jamiyatda boylikning ortishi shaxsning “calling” — ya’ni Xudo tomonidan belgilangan dunyoviy vazifani bajarish belgisi sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv adabiyotshunoslikda mehnat, boylik, tejamkorlik va ijtimoiy muvaffaqiyatning badiiy obrazini tahlil qilishga yangi nazariy manba sifatida xizmat qiladi. “Boy” obrazining Webercha talqini sotsiologik adabiyotshunoslikda C. Wright Mills, R. Bendix va Talcott Parsons tomonidan ham rivojlantirilgan bo’lib, iqtisodiy tizimning shaxs xulqi va adabiy obrazlarga ta’sirini izohlashga xizmat qiladi.

Roland Barthesning “semioz” nazariyasi boylikning adabiy matn ichida namoyon bo’lishini tushuntirishda alohida o’rin tutadi. Barthes “S/Z” asarida matnning belgilar tizimi sifatida ko’rib, har bir badiiy obrazning, jumladan, boy shaxsning ham semantik (SEM.), ramziy (SYM.) va ijtimoiy-madaniy (REF.) kodlar orqali qurilishini ta’kidlaydi. Ingliz adabiyotida bu yondashuv Dickens asarlaridagi ijtimoiy tabaqalanish, boylarga xos makonlar (banklar, qarzdorlar qamoqxonasi, hashamatli uylar), shuningdek Golsuorsi sarlaridagi mulk va merosning matn ichidagi ramziy vazifasini ochib beradi. Barthes semiotikasiga ko’ra, boy obrazining mazmuni uning xatti-harakatlaridan ko’ra ko’proq uni qurshab turgan belgilar tizimida shakllanadi. Boylikning matnda ifodalangan badiiy-bezak unsurlar, predmetlar, ijtimoiy atributlar orqali tasvirlanishi “boy” obrazining semiotik qurilmasi borasidagi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda (Umberto Eco, Stuart Hall, Fredrik Jameson) davom ettirilgan.

Erich Frommning “To Have or To Be?” asarida boylikning psixologik talqini adabiyotdagi boy obrazini yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi. Fromm boylikni shaxsning “ega bo’lish rejimi”da (having mode) mavjudligini ta’minlovchi psixologik ustunlik sifatida izohlaydi. Uning fikriga ko’ra, boylikka haddan tashqari bog’lanish insonni o’zligidan uzoqlashtiradi, uni mulkka qaram va doimiy qoniqmas holga olib keladi. Ushbu model Jek Londonning “Martin Iden” romanida o’zining yorqin badiiy ifodasini topadi: qahramonning boylikka erishgandan so’ng his qilgan ma’naviy bo’shligi Frommning “ega bo’lish – bo’lish” ziddiyati bilan to’la mos keladi. Frommning ushbu nazariyasi zamonaviy adabiyotshunoslikda (Masalan, Z. Bauman, A. Honneth) iste’molchilik jamiyatida qadriyatlarining yemirilish jarayonini tushuntirishda keng qo’llaniladi.

Shu bilan birga, “boy” obrazining ijtimoiy-ideologik talqini bo’yicha P. Bourdieu (kapital turlari nazariyasi), Raymond Williams (madaniy materializm), Terry Eagleton (ideologiya va sinf nazariyasi) kabi olimlarning ishlari ham muhim nazariy asos yaratadi. Bourdieu boylikni iqtisodiy resurs emas, balki madaniy va ramziy kapital bilan bog’liq ustunlik sifatida talqin qiladi, bu esa Dickens va Golsuorsi asarlaridagi obrazlarda o’z aksini topadi. Williams esa badiiy asar yordamida sinfiy ongning shakllanishini tahlil qilib, boy obrazini jamiyatning ideologik tuzilmasi bilan bog’laydi.

Yuqorida tahlil qilingan ilmiy manbalar “boy” obrazining ingliz adabiyotidagi shakllanishi — axloqiy (Webercha), semiotik (Barthescha) va psixologik (Frommcha) qatlamlarning birlashuvi orqali yuzaga keladigan murakkab

badiiy fenomen ekanini namoyon etadi. Bu esa mazkur tadqiqotning nazariy asosini tashkil etadi va boy obrazini ko’p qirrali adabiy konsept sifatida o’rganishga asos bo’ladi.

Tahlil va natijalar. Weberning kapitalistik ong haqidagi g’oyalari Golsuorsi yaratgan Forsaytlar oilasida badiiy tarzda namoyon bo’ladi. “Forsaytlar haqida saga” asarini Weberning g’oyalari asosida tahlil qilganda boylik Forsaytlar ongida ma’naviy asosga ega burch, oila sha’ning ifodasi sifatida talqin qilinadi. Soames Forsyte obrazida boylik shaxsiy erkinlikni emas, balki mulkka qaramlikni yuzaga keltiradi. Weber ta’rif bergan “calling” - dunyoviy vazifani bajarish madaniyati Forsaytlar oilasida “mulkni ashra” tamoyiliga aylanadi. Natijada, Weberning nazariy yondashuvi “boy” obrazining ijtimoiy-legitimlik mohiyatini ochishda asosiy konseptual vosita bo’lib xizmat qilishini kuzatishimiz mumkin. Bundan farqli o’laroq, Dickens yaratgan adabiy qahramonlarning “boyligi” ko’proq belgilar orqali o’quvchi ko’z oldida gavdalanadi. Xususan, uning “Black House”, “Great Expectations” va “A Christmas Carol” asarlaridagi “boy” obrazini shakllantirishda binolar, moliyaviy muassasalar, ijtimoiy joylashuv, kiyim-kechak, qahramonlarning yashash muhiti kabi unsurlardan keng foydalanilgan. Bundan xulosa qilish mumkinki, boy shaxsni o’zidan ko’ra uni qurshab turgan semantik belgilar tizimini boylikning badiiy matn ichidagi haqiqiy “ma’nosi” ni yuzaga keltirishga ko’proq yordam beradi. Umberto Eco, Stuart Hall va Fredrik Jameson kabi tadqiqotchilar ham realistik ruhdagi asarlarni ideologik va ijtimoiy ma’nolarini ochib berishda Barthes semiotikasini muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlashgan. Shu sababli ham, Barthesning yondashuvi boy obrazining badiiy asarlarda qanday yaratilganligini tahlil qilishda zamonaviy adabiyotshunoslikning eng samarali nazariy vositalaridan biri deb hisoblash mumkin.

Frommning “having mode” konsepsiyasi Jek Londonning “Martin Iden” asarida boylikning ruhiy oqibatlarini tahlil qilish uchun samarali asos bo’la oladi. Martin Idenning boylikka erishgandan so’ng kechirgan ruhiy bo’shlig’i Frommning “ega bo’lish insonni o’zidan uzoqlashtiradi” tamoyiliga mos keladi. Boylik shaxsni kuchaytirmaydi, aksincha uning mavjudlik ma’nosini yemiradi - bu Fromm talqinidagi existensial inqirozni isbotlaydi. “Martin Iden” romani boylikning tashqi ko’rinishi bilan ichki psixologik falokat o’rtasidagi ziddiyatni badiiy shaklda ko’rsatib beradi. Ma’lum bo’ladiki, Fromm nazariyasi boy obrazining psixologik-ekzistensial mohiyatini ochishda asosiy metodologik vosita bo’lib xizmat qiladi.

Ingliz adabiyotida “boy” obrazi bir qator tendensiyalarda shakllanib boradi: realizmda boylik ijtimoiy sinf va axloqiy tanqid, modernizm yo’nalishida ruhiy ziddiyatlar va mavjudlik ramzi sifatida, sotsiologik talqinda esa madaniy-ideologik fenomen shaklida. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, adabiyotshunoslikda “boy” obrazining ramziy talqini bir nazariyaga tayangan holda to’liqligicha ochilmaydi, balki boylik fenomeni integrativ nazariy yondashuvlar orqali talqin qilinsa, yanada batafsilroq talqin etiladi.

Xulosa. Ingliz adabiyotida “boy” obrazining mazmuni soddalashtirilgan iqtisodiy tasavvurlardan ancha keng bo’lib, u murakkab ijtimoiy, semiotik va psixologik qatlamlar bilan uyg’unlashgan badiiy fenomen sifatida talqin qilinadi. Weberning “kapitalistik axloq” haqidagi konsepsiyasi boylikni jamiyat tomonidan tan olingan me’yoriy qadriyat va legitim ustunlik sifatida talqin qilsa, Barthesning “semioz” modeli badiiy matnda boylikning belgilar tizimi orqali qanday qurilishini ochib beradi. Frommning “ega bo’lish – bo’lish” dialektikasi esa boylikning inson ruhiyati va mavjudlik ongiga ta’sirini chuqur tahlil qilishga imkon yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyotshunoslikda “boy” obrazini birgina nazariy yondashuv doirasida to‘liq tahlil qilish mumkin emas. Mazkur fenomenning to‘liq ochish uchun sotsiologik (Weber, Bourdieu), semiotik (Barthes), psixologik

(Fromm) modellerni integrativ qo‘llash zarur. Ushbu maqola aynan shu uyg‘unlashtirilgan metodologiyani taklif etar ekan, boylik timsolining ko‘p qatlamli tabiatini yoritishda samarali yo‘l sifatida namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. Weber, M. *Protestant Ethics and the Spirit of Capitalism*. — London: Routledge, 2001.
2. Weber, M. *Economy and Society*. — Berkeley: University of California Press, 1978.
3. Barthes, R. *S/Z*. — New York: Hill and Wang, 1974.
4. Barthes, R. *Mythologies*. — London: Palgrave Macmillan, 2009.
5. Fromm, E. *To Have or To Be?* — New York: Harper & Row, 1976.
6. Fromm, E. *The Sane Society*. — London: Routledge, 1991.
7. Galsworthy, J. *The Forsyte Saga*. — London: Penguin Classics, 2008.
8. Dickens, Ch. *Great Expectations*. — London: Oxford University Press, 1998.
9. Dickens, Ch. *Bleak House*. — London: Penguin Books, 2003.
10. Dickens, Ch. *A Christmas Carol*. — New York: Norton Critical Edition, 2017.
11. London, J. *Martin Eden*. — New York: Penguin Classics, 2006.
12. Bourdieu, P. *Distinction: A Social Critique of the Judgement of Taste*. — Cambridge: Harvard University Press, 1984.
13. Bourdieu, P. *The Forms of Capital // Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education*. — New York: Greenwood, 1986. — P. 241–258.
14. Williams, R. *Marxism and Literature*. — Oxford: Oxford University Press, 1977.
15. Eagleton, T. *Ideology: An Introduction*. — London: Verso, 1991.
16. Bauman, Z. *Liquid Modernity*. — Cambridge: Polity Press, 2000.
17. Honneth, A. *The Struggle for Recognition*. — Cambridge: Polity Press, 1995.
18. Eco, U. *The Role of the Reader*. — Bloomington: Indiana University Press, 1979.
19. Hall, S. *Representation: Cultural Representations and Signifying Practices*. — London: Sage, 1997.
20. Jameson, F. *The Political Unconscious: Narrative as a Socially Symbolic Act*. — Ithaca: Cornell University Press, 1981.
21. Abrams, M. H. *A Glossary of Literary Terms*. — Boston: Cengage Learning, 2015.
22. Culler, J. *Literary Theory: A Very Short Introduction*. — Oxford: Oxford University Press, 2011.
23. Eagleton, T. *The Event of Literature*. — New Haven: Yale University Press, 2012.
24. Watt, I. *The Rise of the Novel*. — Berkeley: University of California Press, 1957.
25. Lukács, G. *The Theory of the Novel*. — London: Merlin Press, 1971.